

## **Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020-yil yanvar-mart**

2020-yil yanvar-mart oylarida 1284,9 mlrd. so'mlik asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 54,2 % i, yoki 696,0 mlrd. so'm jalb etilgan mablag'lar hisobidan, shuningdek 45,8 %, yoki 588,9 mlrd. so'm korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirildi.



## **Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020-yil yanvar-mart**


Hisobot davrida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga hisobiga 309,3 mlrd. so'mlik investitsion mablag' yoki jami investitsiyalarning 24,1 % to'g'ri kelib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,4 % ga kamaydi. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 975,6 mlrd. so'm o'zlashtirildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 5,0 foizli punktga kamaydi.

Korxonalar va tashkilotlar o'z mablag'lari hisobiga 429,4 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilindi, yoki jami investitsiyalarning 33,4 foizi o'zlashtirildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 142,3 foizga oshdi. Aholining mablag'lari hisobidan 159,5 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi va jami investitsiyalardagi ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, 2019-yilning shu davriga nisbatan 71,7 % ga kamaydi. Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 176,9 mlrd. so'mlik xorijiy kreditlar ajratildi, 2019-yilning shu davriga nisbatan 41,1 foizga kamaygan va jami investitsiyalarning 13,7 % ini tashkil etdi.


Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 258,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 20,1 % ini tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 74,7 % ga kamaygan, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar 128,3 mlrd. so'mni (ulushi 10,0 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 84,4 % ga kamaygan), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan – 16,5 mlrd. so'm va ulushi 1,3 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,4 % ga kamaygan. Respublika byudjetidan - 100,9 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 7,9 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,2 % ga kamaygan), Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armasidan - 15,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 1,2 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,6 martaga oshgan) o'zlashtirildi.



**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi  
2020-yil yanvar-mart**



**Mulkchilik shakllari bo`yicha asosiy kapitalga  
investitsiyalar  
(jamiga nisbatan % da)**




Nodavlat  
mulkchiligi shakli

2020-yil yanvar-mart

Davlat  
mulkchiligi shakli

2020-yil yanvar-mart



Hisobot davrida asosiy kapitalga nodavlat mulki asosida kiritilgan investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 15,9 foizga kamaydi.



***Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga investitsiyalar***

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan:</b>	<b>1284,9</b>	<b>71,0</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashtirilgan investitsiyalar</b>	<b>309,3</b>	<b>39,4</b>	<b>24,1</b>
<b>Davlat byudjeti</b>	<b>100,9</b>	<b>42,2</b>	<b>7,9</b>
<b>Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armasi</b>	<b>15,0</b>	<b>9,6m.</b>	<b>1,2</b>
<b>Tiklanish va taraqqiyot fondi</b>	<b>16,5</b>	<b>14,4</b>	<b>1,3</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari</b>	<b>176,9</b>	<b>41,1</b>	<b>13,7</b>
<b>Markazlashtirilmagan investitsiyalar</b>	<b>975,6</b>	<b>95,0</b>	<b>75,9</b>
<b>Korxonalar mablag'lari va maxalliy byudjet</b>	<b>429,4</b>	<b>142,3</b>	<b>33,4</b>
<b>Tijorat banklari kreditlari va boshqalar qarz mablag'lari</b>	<b>258,4</b>	<b>74,7</b>	<b>20,1</b>
<b>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar</b>	<b>128,3</b>	<b>84,4</b>	<b>10,0</b>
<b>Aholi mablag'lari</b>	<b>159,5</b>	<b>71,7</b>	<b>12,4</b>


*Moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati Suv ta'minotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari – 9,6m., bu "Obod qishloq" va "Obod maxalla" dasturiga kiritilgan aholini suv bilan ta'minlash tizimini yaxshilash bilan bog'liq. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ajratilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati - 142,3 % ni tashkil etdi.*

### ***Asosiy kapitalga investitsiyalar, tumanlar kesimida***


	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
<b>Nukus shahri</b>	<b>241,6</b>	<b>65,4</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>59,8</b>	<b>104,4</b>
<b>Beruniy</b>	<b>104,6</b>	<b>101,7</b>
<b>Bo'zatov</b>	<b>1,0</b>	<b>125,5</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>101,7</b>	<b>108,0</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>58,0</b>	<b>181,0</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>104,9</b>	<b>100,1</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>24,0</b>	<b>123,8</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>33,5</b>	<b>57,0</b>
<b>Nukus</b>	<b>45,5</b>	<b>99,6</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>119,6</b>	<b>21,6</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>27,8</b>	<b>170,7</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>89,9</b>	<b>66,1</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>43,0</b>	<b>101,6</b>
<b>Chimboy</b>	<b>41,8</b>	<b>128,7</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>16,2</b>	<b>99,1</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>172,0</b>	<b>132,5</b>

*Tumanlar miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar: Kegeyli tumanida o'sish sur'ati 181,0 % ga oshdi, bu hisobot davrida ijtimoiy obyektlarni qurilishi va rekonstruktsiya qilinishi hisobiga ta'minlandi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'atlari Taxtako'pir tumanida ham kuzatilmoqda, bu 170,7 % ni tashkil etdi, ushbu tumanda ishlab chiqarish sanoatiga yangi quvvatlar yaratildi. Ellikqal'a tumanida o'sish sur'ati 132,5 % ga oshdi, bu to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning qishloq xo'jaligi va to'qimachilik sanoatiga jalb qilinishi hisobiga ta'minlandi.*

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tumanlar kesimida o'sish sur'atlari, % da**



## ***Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi***




*Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi bo`yicha tahlil qilinganda, Qoraqalpog'iston Respublikasida 601,4 mlrd. so'm qurilish montaj ishlariga ajratildi va jami investitsiyalarning 46,8 % ini tashkil etdi. Asosiy vositalarga investitsiyalarning mashina va uskunalarni sotib olish ulushiga 623,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan 48,5 %) hamda boshqa harajatlar - 60,5 mlrd. so'mni (4,7 %) tashkil qildi.*





## ***Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi***



*Hisobot davrida asosiy fondlarga kiritilgan investitsiyalarning ko'p qismi yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar bo'lib, hajmi 505,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va umumiy hajmining 39,3 % ni tashkil etdi. Mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik jihatdan qayta qurollantirishga 389,8 mlrd. so'm o'zlashtirildi, va umumiy hajmining 30,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, 389,7 mlrd. so'm boshqa sohalarga yo'naltirildi va ulushi 30,3 % ni tashkil etdi.*





• O' rmon, baliqchilik va  
qishloq xo' jaligi  
226,8 mlrd. so'm



• Tog' -kon sanoati  
95,9 mlrd. so'm



• Qayta ishlash sanoati  
382,0 mlrd. so'm



• Elektr, gaz bilan ta' minlash  
107,4 mlrd. so'm



• Suv bilan ta' minlash,  
kanalizatsiya  
50,4 mlrd. so'm



• Qurilish  
73,8 mlrd. so'm



• Tashish va saqlash  
53,8 mlrd. so'm



• Ta'lim  
31,0 mlrd. so'm




• Uy joy qurilishi  
110,5 mlrd. so'm



• Boshqa yo'nalishlar  
153,3 mlrd. so'm

**Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar  
(ming. so'm)**




Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori ko'rsatkichi Mo'ynoq tumanida qayd etildi - 1051,0 ming. so'm, hisobot davrida bu yerda yangi sist artemiyasini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Taxiatio'sh tumanida - 1617,9 ming. so'm, bu Taxiatio'sh TESda yirik investitsiya loyihasi - quvvati 230-280 MVt bo'lgan ikkita bug'-gaz qurilmasi qurilishi bilan bog'liq. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan issiqxonalar tashkil etish va qizilmiya ildizini yetishtirish bilan bog'liq loyihalar amalga oshirildi. Qorao'zak tumanida aholi jon boshiga - 1925,9 ming. so'm to'g'ri keldi, bu xorijiy kreditlar asosida yangi issiqxonalar tashkil etish bilan bog'liq. Ellikqal'a tumanida aholi jon boshiga - 1079,1 ming. so'm to'g'ri keldi, bu O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida kiritilgan xorijiy kreditlar asosida, ushbu tumanda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.



## ***Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi***

***(jamiga nisbatan, foizda)***





*Hisobot davrida faoliyat turlari bo'yicha elektr energiyasi va gaz ta'minotiga 107,4 mlrd. so'm, yoki investitsiyalar umumiy hajmining 8,4 % i sarflandi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Taxiatosh TESda elektr energiyasini ishlab chiqaradigan ikkita yangi qurilmaning qurilishi bilan bog'liq.*

*Qayta ishlash sanoatiga 382,0 mlrd. so'm yoki investitsiyalarning 29,7 % i sarflandi, bular asosan 66,0 mlrd. so'm to'qimachilik sanoatiga, 19,6 mlrd. so'm farmasevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishga, 139,6 mlrd. so'm boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishga jalb etilgan xorijiy investitsiya va kreditlar asosida amalga oshirildi.*

*Qishloq xo'jaligi faoliyat turiga esa 226,8 mlrd. so'm, yoki investitsiyalar umumiy hajmining 17,7 %i sarflandi. Bu, suv resurslaridan unumli foydalanish maqsadida, ekin ekiladigan maydonlarni tekislash ishlariga yo'naltirilgan xorijiy kreditlar bilan va tumanlarda yangi issiqxonalarning barpo etilishi bilan bog'liq.*


*Tog'-kon sanoatida 95,9 mlrd. so'm yoki umumiy investitsiyalarning 7,5 foizi o'zlashtirildi, shundan 56,0 mlrd. so'm yoki investitsiyalar umumiy hajmining 4,4 foizi tabiiy gaz qazib olishga (Ustyurt platosidagi gaz quduqlarini barpo etishga) yo'naltirildi.*

*Uy-joy qurilishi faoliyat turiga 110,5 mlrd. so'm, yoki investitsiyalar umumiy hajmining 8,6 foizini tashkil etdi.*



***Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar***

*(jamiga nisbatan, foizda)*



*Asosiy kapitalga uzlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 19,4 foizi elektr energiyasini va gaz yetkazib berish faoliyat turiga to`g`ri keldi va 38,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyat turiga o`zlashtirildi.*

***Chet el investitsiya va kreditlarining o'zlashtirilishi, tumanlar kesimida, mlrd. so'm***

Tumanlar	Jami chet el investitsiya va kreditlari	To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar	O'z.R. kafolatidagi chet el investitsiya va kreditlari	Kafolatlanmagan chet el kreditlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	305,3	54,7	176,9	73,7
Nukus shahri	36,5	5,8	1,4	29,3
Amudaryo	12,9	1,9	11,0	-
Bo'zatov	0,9	-	-	0,9
Qorao`zak	5,6	-	-	5,6
Kegeyli	2,3	2,3	-	-
Qo'ng'iro't	29,9	29,9	-	-
Qonliko'l	1,2	1,2	-	-
Mo'ynoq	4,8	2,9	-	1,9
Nukus	4,2	4,2	-	-
Taxiatosh	72,7	0,8	59,1	12,8
To'rtko'l	0,2	0,2	-	-
Xo'jayli	2,0	-	-	2,0
Chimboy	5,5	5,5	-	-
Ellikqal'a	126,6	-	105,4	21,2

*Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish bo'yicha Ellikqal'a, Taxiato'sh, Qo'ng'iro't tumanlari va Nukus shahri etakchi o'rinni egallaydi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy hajmidagi eng katta ulushi Ellikqal'a tumanida 41,5 foizni tashkil etdi, bu qishloq xo'jaligini rivojlantirishga o'zlashtirilgan davlat kafolati ostida xorijiy kreditlar bilan*



*bog'liq. Taxiatosh tumanida 23,8 foizni tashkil etdi, bu Taxiatosh IESda ikkita qo'shimcha qurilmaning qurilishi bilan bog'liq. Qo'ng'irod tumani ulushi 9,8 % ni tashkil etganligi, bu Ustyurt platosida yangi gaz quduqlari qurilishi bilan bog'liq. Nukus shahri ulushi 12,0 % tashkil etgan, bu esa, qayta ishlash sanoatida yangi quvvatlarning barpo etilishi bilan bog'liq.*

***Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi***

***Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi***

***Aloqa telefoni: (71) 230-82-13***

***(71) 230-82-14***

***(61) 222-75-91***